Maksadxon Xakimova – PhD, katta o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)
E-mail: maqsadxonhakimova@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-3593-4888

Javohir Yo‘ldoshxonov – o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetiToshkent, O‘zbekiston
E-mail: uhakimov@list.ru
ORCID: https://orcid.org/0009-0004-4652-8051

“THE MOVEMENT” SHE’RIYATI VA ESTETIK PLURALIZM

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1960-yillar Britaniya she’riyatida yuz bergan estetik o‘zgarishlar, “The Movement” adabiy oqimining poetik an’analari hamda postmodernizmga xos estetik pluralizm masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu davr she’riyatining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar o‘rganilib, ularning poetik ifoda va adabiy identitet bilan bog‘liqligi yoritiladi. Shuningdek, “The Movement” vakillari ijodida kuzatilgan soddalik, ratsionalizm va an’anaviy shakllarga qaytish tendensiyalari postmodern poetikaning ko‘pqatlamli tabiati bilan qiyosiy asosda tahlil qilinadi. Maqola ingliz she’riyatining evolyutsion jarayonini tushunishda ushbu oqimning o‘rni va ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Britaniya she’riyati, postmodern poetika, estetik pluralizm, identitet.

Maksadkhon Khakimova – PhD, senior teacher
Uzbekistan State World Languages University (Tashkent, Uzbekistan)

Javokhir Yuldoshkhonov – teacher
Uzbekistan State World Languages University (Tashkent, Uzbekistan)

POETRY OF “THE MOVEMENT” AND AESTHETIC PLURALISM

Abstract. This article analyzes the aesthetic transformations in 1960s British poetry, focusing on the poetic legacy of “The Movement” and the emergence of aesthetic pluralism within postmodern poetics. The study examines the social, political, and cultural factors that influenced the formation of poetic forms and literary identity during this period. It highlights the tendencies toward simplicity, rationalism, and a return to traditional structures in the works of “The Movement” poets, while also comparing these features with the multi-layered nature of postmodern poetic expression. The article contributes to a deeper understanding of the evolutionary processes in English poetry and the significance of this literary movement within that development.

Keywords: British poetry, postmodern poetics, aesthetic pluralism, identity

Максадхон Хакимова – PhD, старший преподаватель
Узбекский государственный университет мировых языков (Ташкент, Узбекистан)

Жавохир Йулдошхонов – преподаватель
Узбекский государственный университет мировых языков (Ташкент, Узбекистан)

ПОЭЗИЯ «THE MOVEMENT» И ЭСТЕТИЧЕСКИЙ ПЛЮРАЛИЗМ

Аннотация. В данной статье анализируются эстетические изменения в британской поэзии 1960-х годов, поэтическое наследие движения «The Movement» и формирование эстетического плюрализма в контексте постмодернистской поэтики. Исследуются социальные, политические и культурные факторы, повлиявшие на развитие поэтических форм и литературной идентичности данного периода. Особое внимание уделяется тенденциям к простоте, рационализму и возвращению к традиционным формам в творчестве поэтов «The Movement», которые сопоставляются с многослойной природой постмодернистского поэтического дискурса. Статья способствует более глубокому пониманию эволюции английской поэзии и роли данного литературного направления в этом процессе.

Ключевые слова: британская поэзия, The Movement, постмодернизм, эстетический плюрализм, идентичность.

KIRISH

Bugungi kun adabiyotshunosligi uchun 1960-yillar ingliz she’riyatini o‘rganish uning ayni shu bosqichda markazlashgan realizmdan ko‘p markazli, pluralistik poetik maydonga o‘tganligi va keyingi postmodern yo‘nalishlar uchun nazariy-estetik zamin yaratilganligi nuqtayi nazaridan g‘oyatda dolzarbdir. Shu bilan birga dekolonizatsiya jarayonlari, Sovuq urush mafkuraviy bosimi, talabalar harakati va kontrmadaniyat kabi ijtimoiy-siyosiy omillar adabiy tafakkurga bevosita ta’sir ko‘rsatib, poetik shakl va mazmunni yangicha talqin qilish zaruratini tug‘dirganligi ham ayni mavzuning nechog‘li dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi 1960-yillar Britaniya she’riyatidagi estetik transformatsiyalarni, jahon adabiyotshunosligida “The Movement” merosining o‘rni va ahamiyatini hamda postmodern poetika elementlarining shakllanish jarayonini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

1. 1950-yillar “The Movement” poetikasining asosiy tamoyillarini aniqlash;
2. 1960-yillardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning she’riyatga ta’sirini ko‘rsatish;
3. mazkur davr she’riyatida estetik pluralizm va poetik paradigma almashinuvi xususiyatlarini tahlil qilish;
4. fragmentatsiya, intertekstual o‘yin va identitet muammosi kabi postmodern elementlarning namoyon bo‘lishini izohlash.

Belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda 1960-yillar Britaniya she’riyati tarixiy-adabiy va nazariy kontekstda kompleks ravishda tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

1960-yillar Britaniya she’riyatiga oid ilmiy tadqiqotlar bir necha asosiy yo‘nalishda shakllangan bo‘lib, A. Alvarez “The New Poetry” antologiyasida 1950-yillar ratsional-estetik modelining ichki cheklovlarini ko‘rsatib, yangi avlod shoirlarida emotsional intensivlik va ochiqlik kuchayganini ta’kidlasa (Alvarez, 1962), B. Morrison “The Movement”ni yagona manifestga ega bo‘lmagan, biroq umumiy estetik pozitsiyani baham ko‘rgan guruh sifatida talqin qildi.

Keyinchalik, Blake Morrison va Andrew Motion tomonidan tahrir qilingan “The Penguin Book of Contemporary British Poetry” 1960–70 yillarda yuzaga kelgan poetik ko‘pmarkazlilikni asoslab berdi (Morrison, 1982). Peter Barry postmodern adabiyot nazariyasi doirasida ushbu davrni modernistik markazlashuvdan diskursiv pluralizmga o‘tish bosqichi sifatida baholadi (Barry, 2002). Edward Saidning “Culture and Imperialism” asari esa dekolonizatsiya jarayonlarining ingliz madaniyati va adabiy ongiga ta’sirini yoritib, milliy identitetning qayta talqin qilinishini izohladi (Said, 1993).

Mazkur maqola tarixiy-adabiy va qiyosiy tahlil metodologiyasiga asoslanadi. Tadqiqotda: tarixiy-kontekstual yondashuv (Sovuq urush, dekolonizatsiya, kontrmadaniyat omillari); poetik tahlil (formal tuzilma, til, semantik strategiyalar); diskursiv va postkolonial talqin metodlari qo‘llanildi.

Manbalar tahlili orqali “The Movement” va 1960-yillar eksperimental she’riyati o‘rtasidagi estetik ziddiyat va uzviylik aniqlashtirildi.

METODOLOGIYA

1960-yillar Britaniya she'riyatiga oid ilmiy tadqiqotlar bir necha asosiy yo'nalishda shakllangan bo'lib, A. Alvarez "The New Poetry" antologiyasida 1950-yillar ratsional-estetik modelining ichki cheklovlarini ko'rsatib, yangi avlod shoirlarida emotsional intensivlik va ochiqlik kuchayganini ta'kidlasa (Alvarez, 1962), B. Morrison "The Movement"ni yagona manifestga ega bo'lmagan, biroq umumiy estetik pozitsiyani baham ko'rgan guruh sifatida talqin qildi (Morrison, 1980).

Keyinchalik, Blake Morrison va Andrew Motion tomonidan tahrir qilingan "The Penguin Book of Contemporary British Poetry" 1960-70 yillarda yuzaga kelgan poetik ko'pmarkazlilikni asoslab berdi (Morrison & Motion, 1982). Peter Barry postmodern adabiyot nazariyasi doirasida ushbu davrni modernistik markazlashuvdan diskursiv pluralizmga o'tish bosqichi sifatida baholadi (Barry, 1995). Edward Saidning "Culture and Imperialism" asari esa dekolonizatsiya jarayonlarining ingliz madaniyati va adabiy ongiga ta'sirini yoritib, milliy identitetning qayta talqin qilinishini izohladi (Said, 1993).

Mazkur maqola tarixiy-adabiy va qiyosiy tahlil metodologiyasiga asoslanadi. Tadqiqotda: tarixiy-kontekstual yondashuv (Sovuq urush, dekolonizatsiya, kontrmadaniyat omillari); poetik tahlil (formal tuzilma, til, semantik strategiyalar); diskursiv va postkolonial talqin metodlari qo'llanildi. Manbalar tahlili orqali "The Movement" va 1960-yillar eksperimental she'riyati o'rtasidagi estetik ziddiyat va uzviylik aniqlashtirildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 1950-yillarda shakllangan "The Movement" she'riyati 1960-yillar Britaniya poetik izlanishlari uchun muhim estetik va tarixiy asos vazifasini bajargan. Ushbu oqim tomonidan ilgari surilgan soddalik, ratsionalizm va formal intizom keyingi davrda yuzaga kelgan eksperimental yo'nalishlar uchun nuqtai nazar sifatida xizmat qilgan. Shu bilan birga, 1960-yillar she'riyati markazlashgan realistik modeldan voz kechib, ko'p markazli va pluralistik poetik tizim tomon rivojlanganligi aniqlandi.

Tahlillar shuni ham ko'rsatdiki, davrning ijtimoiy-siyosiy sharoitlari: Sovuq urush keskinligi, dekolonizatsiya jarayonlari hamda talabalar harakatining kuchayishi she'riy shakl va mazmunga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Bu omillar poetikada ochiqlik, emotsional intensivlik va tajribaviy yondashuvning kuchayishiga olib kelgan.

Shuningdek, postmodern poetikaga xos bo'lgan fragmentatsiya, intertekstual o'yin va identitet muammosi aynan ushbu davrda mustahkamlanganligi aniqlandi. Natijada ingliz she'riyati yagona estetik markazdan voz kechib, turli ovozlar va yondashuvlar o'zaro muloqot qiladigan murakkab madaniy tizimga aylangan.

MUHOKAMA

"The Movement" adabiy harakati 1950-yillar Britaniya she'riyatida me'yoriy-estetik model sifatida shakllanib, formal nazorat, klassik metrik tuzilma va sintaktik ravonlikni poetik sifat mezoni darajasiga ko'tardi. Ushbu oqim vakillari she'rni intellektual murakkablik va haddan tashqari ramziylikdan xoli, mantiqan aniqlangan va kommunikativ jihatdan ochiq shaklda tasavvur qildilar. Bu pozitsiya T.S. Eliot va Ezra Pound asos solgan yuqori modernizmga nisbatan puxta ishlab chiqilgan estetik javob edi. Modernizmda ustuvor bo'lgan ko'p qatlamli intertekstual tizimlar, mifologik konstruksiyalar va madaniy pessimizm "The Movement" vakillari tomonidan sun'iylik va hissiy sovuqlik sifatida baholandi (Morrison, 1980). Natijada ular she'rni "intellektual elita" doirasidan chiqarib, kundalik nutq va oddiy kishilar idrokiga yaqinlashtirishga intildilar.

Biroq aynan shu ratsional-intizomiy model 1960-yillarga kelib bahs-munozara obyektiga aylandi. Jamiyatda yuz berayotgan keskin ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar (yadroviy tahdid, mafkuraviy qarama-qarshiliklar, talabalar harakati va kontrmadaniyatning kuchayishi) mavjud poetik shakl imkoniyatlarini qayta ko'rib chiqishni talab qildi. Yangi avlod shoirlari hayotiy tajribaning murakkabligi va ziddiyatlarini ifodalash uchun an'anaviy metrik intizom yetarli emas, degan xulosaga keldilar. A. Alvarez ta'kidlaganidek, 1950-yillar poetikasidagi "ratsional sovuqlik" va "emotsional tiyilish" (Alvarez, 1962) 1960-yillarda yanada ochiq, intensiv va eksperimental ifodaga ehtiyoj tug'dirgan omillardan biri bo'ldi.

Philip Larkin fenomeni ushbu estetik modelning eng yorqin va mukammal timsoli sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Uning she'rlarida vaqtning bebaqoligi, e'tiqodning zaiflashuvi,

mavjudlikning ma’nosizligi va shaxsiy yolg‘izlik motivlari aniqlik, ixchamlik hamda nozik ironik ohanglar orqali ifodalandi. Larkin she’riyati ekzistensial hushyorlikni kuchli hissiy ko‘tarinkilikdan xoli tarzda namoyon etdi. Shu bilan birga, uning poetikasi o‘zining cheklangan estetik chegaralari bilan ham ajralib turadi: aynan shu chegaralanganlik 1960-yillar oxirida yuzaga kelgan lingvistik va formal tajribalar fonida yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanadi.

Transatlantik adabiy almashinuv jarayoni ham mazkur davr poetikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, Amerika Beat harakati va avangard yo‘nalishlari Britaniya she’riyatida erkin she’r shakli, performativ ifoda, spontan yozuv va til bilan eksperiment qilish tendensiyalarini kuchaytirdi (Barry, 1995). She’r tobora sahna, jamoat maydoni va madaniy aksiyalarga yaqinlashdi; u nafaqat yozma matn, balki ijro etiladigan nutq shakliga ham aylandi. Bu holat poetik tilning chegaralarini kengaytirib, uni statik matndan dinamik jarayonga aylantirdi.

Bundan tashqari, dekolonizatsiya jarayonlari milliy identitet va imperiya merosini qayta ko‘rib chiqish masalasini kun tartibiga olib chiqdi. Endilikda “ingliz” tushunchasi yagona va o‘zgarmas kategoriya sifatida emas, balki tarixiy, siyosiy va madaniy omillar bilan shakllanadigan murakkab konstruksiya sifatida talqin qilina boshladi. Bu esa she’riyatda identitet muammosini markaziy mavzulardan biriga aylantirdi. Natijada poetik maydon ichida turli estetik strategiyalar: formal an’anaparastlik, eksperimental yondashuv, siyosiy ongli yozuv va postkolonial talqin o‘zaro raqobatlashuvchi paradigmalar sifatida shakllandi (Said, 1993; Schmidt, 1999).

Shu tariqa, 1960-yillar Britaniya she’riyati bir yo‘nalishning ustuvorligi bilan emas, balki estetik ko‘p ovozlilik va diskursiv pluralizm bilan tavsiflanadi. “The Movement” tomonidan yaratilgan barqaror va intizomiy model yangi poetik izlanishlar uchun zarur fon vazifasini bajargan bo‘lsa-da, aynan unga nisbatan tanqidiy munosabat she’riyatni lingvistik, tematik va ideologik jihatdan boyitdi. Natijada Britaniya she’riyati yagona dominant markazdan ko‘ra, bahs-munozaralar asosida rivojlanadigan ko‘p qatlamli madaniy maydonga, o‘zaro raqobatlashuvchi paradigmalar tizimiga aylandi (Morrison & Motion, 1982).

XULOSA

1960-yillar Britaniya she’riyati estetik va ideologik jihatdan muhim burilish davri bo‘ldi. Ushbu davrda “The Movement” tomonidan shakllantirilgan soddalik, ratsionalizm va formal intizomga asoslangan poetik model keyingi avlod shoirlari tomonidan qayta talqin qilindi va kengaytirildi. Natijada ingliz she’riyatida pluralistik va eksperimental yondashuvlar kuchayib, an’anaviy poetik chegaralar sezilarli darajada kengaydi. She’riyat markazlashgan realistik ifoda tizimidan voz kechib, ko‘p ovozli va postmodern xususiyatlarga ega murakkab adabiy maydonga aylandi. Bu o‘zgarishlar keyingi o‘n yilliklar adabiy rivoji uchun mustahkam estetik va nazariy zamin yaratdi hamda ingliz poetikasining yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qildi.

ADABIYOTLAR

1. Alvarez, A. (Ed.). (1962). *The New Poetry*. Penguin Books.
2. Morrison, B. (1980). *The Movement: English Poetry and Fiction of the 1950s*. Oxford University Press.
3. Morrison, B., & Motion, A. (Eds.). (1982). *The Penguin Book of Contemporary British Poetry*. Penguin Books.
4. Barry, P. (2002). *Beginning Theory: An Introduction to Literary and Cultural Theory* (2nd ed.). Manchester University Press.
5. Said, E. W. (1993). *Culture and Imperialism*. Alfred A. Knopf.